

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.17/7.06.2024.K/T.06.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

QODIROV SARDOR MUSURMONOVICH

**MAHALLIY XOMASHYOLAR ASOSIDA PIRIDIN HOSILALARINI
GETEROGEN-KATALITIK SINTEZI**

02.00.14 - Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Navoiy-2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD) on technical
sciences**

Qodirov Sardor Musurmonovich

Mahalliy xomashyolar asosida piridin hosilalarini geterogen-katalitik sintezi..... 3

Кодиров Сардор Мусурмонович

Гетерогенно-каталитический синтез производных пиридина на основе
местного сырья.....21

Kodirov Sardor Musurmonovich

Heterogeneous catalytic synthesis of pyridine derivatives based on local raw
materials.....39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....42

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.17/7.06.2024.K/T.06.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

QODIROV SARDOR MUSURMONOVICH

**MAHALLIY XOMASHYOLAR ASOSIDA PIRIDIN HOSILALARINI
GETEROGEN-KATALITIK SINTEZI**

02.00.14 - Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/T2612 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.nsumt.uz va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Vapoyev Husnitdin Mirzoyevich
texnika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Kadirov Xasan Irgashevich
texnika fanlari doktori, professor

Abdurazakov Askar Sheraliyevich
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi DSc.17/7.06.2024.K/T.06.03 raqamli Ilmiy kengashning «18» 07 2024-yil soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil:210100, Navoiy shahri, G‘alaba shoh ko‘chasi, 76 v-uy. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining majlislar zali. Tel.:0 (436) 223-23-32; faks:0 (436) 223-49-66; (e-mail: nvmi_info@edui.uz).

Dissertatsiya bilan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (157 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 210100, Navoiy shahri, G‘alaba shoh ko‘chasi, 76v-uy. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining majlislar zali. Tel.: 0 (436) 223-23-32; faks: 0 (436) 223-49-66; (e-mail: nvmi_info@edui.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «6» 07 kuni tarqatildi.
(2024 yil «6» 07 dagi 1 raqamli reestr bayonnomasi).



 **B.F.Muxiddinov**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

 **S.Sh.Sharipov**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, PhD., dotsent

 **M.Muminov**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi v.b., k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tarkibida piridin halqasi bo‘lgan ko‘plab moddalar dori-darmonlar (1500 dan 73 tasi hayotiy muhim dori vositalaridan), bo‘yoqlar, agrokimyoviy moddalar, flokulyantlar, emulgatorlar, latekslar, kislotali korroziya ingibitorlari, ion almashinadigan qatronlar va boshqa foydali materiallarni ishlab chiqarish uchun asos hisoblanadi. Hozirgi vaqtda dunyoda piridinlar va uning hosilalarini ishlab chiqarish hajmi yiliga 100 ming tonnadan oshadi va kelgusida ushbu mahsulotlarga bo‘lgan talabning oshishi sintez jarayoniga ilg‘or texnologiyalarni joriy etish imkonini beradi. Sintez qilinayotgan piridin va uning hosilalarining 90% dan ortig‘i amalda ffor saqlagan katalizatorlar orqali sintetik usullar bilan olinadi. Shu munosabat bilan, ekologik xavfsiz xomashyolar hamda inson salomatligi uchun maqbul bo‘lgan sharoitlarda piridin hosilalarini sintez qilish texnologiyasi takomillashtirish, cheteldan olib kelinayotgan xomashyo manbalarini mahalliyashtirish, shu bilan birgalikda yangi turdagi katalizatorlarni amaliyotga joriy etish har tomonlama muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda bugungi kunda ilmiy-tadqiqot natijalarini qo‘llash asosida piridin hosilalarini ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish, mahsulot unumiga turli xil fizik-kimyoviy parametrlarning ta’sirini baholash, ekologik xavfsiz yuqori unumga ega katalizatorlarni yaratish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, Respublikamizda mahalliy xomashyolarga asoslangan yangi texnologiyalarni joriy etishga, yangi turdagi katalizatorlar yaratishga, import o‘rnini bosuvchi korroziya ingibitorlari sifatida qo‘llaniladigan piridin hosilalarini yuqori unumda ishlab chiqarishga hamda texnologik bosqichlarni eng maqbul sharoitlarini aniqlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so‘ngi yillarda piridin hosilalarini geterogen-katalitik usulda sintez qilish texnologik jarayonini takomillashtirish, mahalliy xomashyolardan yangi turdagi katalizatorlar yaratish, sintez qilingan mahsulotlardan erituvchi, pestisid, sirt faol moddalar sifatida foydalanish bo‘yicha ilg‘or ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni joriy qilib, bir qator ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida “Energiya tejoychi va ekologik toza texnologiyalarni yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish...”¹ kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, piridin hosilalarini geterogen-katalitik usulda sintez qilish, mahsulotlarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini o‘rganish, texnologik ishlab chiqarishning mahalliyashtirish imkoniyatlarini asoslash, shuningdek sintez qilingan mahsulotlarning keng konsentratsiya oralig‘ida ingibitorlik vazifasini aniqlash bo‘yicha bajariladigan tadqiqotlar katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 -yil 7- fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. –T., 2017. – 103 b.

to'g'risida»gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026 yillarda mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5368-son «O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi» to'g'risidagi Farmonlari va 2018-yil 20-oktyabrdagi PQ-841-son «2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020-yil 15-martdagi PQ-6079-son «Raqamli O'zbekiston –2030» qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning VII. «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida piridin hosilalarini sintezi bo'yicha tizimli tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, chet-el olimlari Grigoreva N.G., Filippova N.A., Ivanova A.S., Antonova V.V., Djemelev U. M., Wang H., Yuan N., Schimizu S., Watanabe N., Kataoka T., Muxlenov I.P., Vlasov Ye.A., Deryujkina V.I., Larionov A.M., Bajina T.A., Yevstratov A. A., Kutakova N. B., Kolyada G.G., Ivanovskiy A.P., Kutin A.M., Ramprasad Dorai, Stepanova V. A., Korotkovat V.N., Pavlov S.Yu., Dutta Pashupati, Roy Subxash Chandra, Roy Shyam Kishor, Gosvami Tarun Kanti va boshqalar tomonidan turli xil geterogen katalizatorlar tayyorlanib, piridini va uning hosilalari sintez qilingan.

Respublikamizda Sirlibayev T., Yusupov D., Ikramov A., Nurmonov S.E., Nazarbekov M.K., Shaxobiddinov A., Turobjonov S.M., Kadirov X.I., Ismailova L.A., Xolikova S.D., Musulmanov N.X., Kadirov X.I., Muxiddinov B.F., Vapoyev H.M. va boshqalar mahalliy xomashyolar va sanoat chiqindilariga asoslangan korroziya ingibitorlari texnologiyasiga, sirt faol moddalar, kauchuk tezlatgichlar, ion almashinadigan qatronlar, farmasevtikada dorivor moddalar, pestitsidlar, gerbitsidlar, qishloq xo'jaligida stimulyatorlar, sintez plyonkasi va fotomateriallarda boshlang'ich birikmalar sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan piridin va uning hosilalari sinteziga ulkan hissa qo'shishgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № 5-04/2021-son PZ “QQD-1 quyushtiruvchining kislotali oqova suvlarida mavjud bo'lgan oltin va aralashmalarni (temir, mishyak va boshqalar) alohida oqimlarga ajratish texnologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi piridin hosilalarini sintez qilish uchun mahalliy xomashyolardan samarali geterogen katalizatorlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

piridin hosilalarini sintez qilish uchun mahalliy xomashyolardan (kaolin, bentonit va opoka jinsi) yangi geterogen yuqori selektiv katalizatorlar yaratish;

katalizatorlar ishlab chiqarish texnologiyasining optimal parametrlarini (boshlang'ich moddalar nisbati, kuydirish vaqti davomiyligi va temperaturasi, o'zak va peptizatorlar tabiati hamda katalizatorlarning ekspluatatsion xususiyati) tadqiq qilish;

asetilen va ammiak asosida mahalliy xomashyolardan tayyorlangan katalizatorlar ishtirokida piridin hosilalarini geterogen-katalitik usulda sintez qilish;

piridin hosilalarini sintez qilish texnologiyasining optimal parametrlarini (boshlang'ich moddalarning mol nisbatlari va sarfi, sintez jarayoni davomiyligi va temperaturasi, katalizator tabiati hamda miqdori, kislotalik markazlarining oshishi) aniqlash;

fizik-kimyoviy tahlil usullari va kvant kimyoviy hisoblashlar asosida piridin hosilalarining elektron va strukturaviy tuzilishini tadqiq qilish;

mahalliy xomashyolar asosida piridin hosilalarini sintez qilishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholash.

Tadqiqotning obyektlari - asetilen, ammiak, kaolin, bentonit, opoka jinsi, kadmiy, xrom va rux oksidlari hamda tuzlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti piridin hosilalarini (2-MP, 4-MP) sintez qilish uchun mahalliy xomashyolar asosida tayyorlangan katalizatorlar texnologiyasi, shuningdek, sintezlangan moddalarning metall korroziya ingibitorlari sifatida suv-aylanma tizimlarida qo'llash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida YMR-, IQ- va xromato-mass-spektroskopiyasi, rentgenografiya, skanerli elektron va atom kuch mikroskoplari va standart tahlil usullari kabi kompleks fizik-kimyoviy tadqiqot usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mahalliy xomashyolardan (kaolin, bentonit va opoka jinsi) turli nisbatlariga ega yangi geterogen yuqori selektiv katalizatorlar ishlab chiqilgan;

2-metilpiridin va 4-metilpiridinni sintez qilishda kaolin, bentonit va opoka jinsi asosidagi yangi geterogen katalizatorlarning katalitik xossalari (faolligi, selektivligi va mexanik xususiyatlari) aniqlangan;

geterogen-katalitik sintez jarayoni vaqtining davomiyligi va harorati, katalizatorlar tabiatining asosiy mahsulotlar unumiga ta'siriga aniqlangan hamda mono va diaktiv katalitik tizimlarning faollik qatori tuzilgan;

mahalliy komponentlar asosida geterogen-katalitik usul yordamida piridin hosilalarini sintez qilish texnologiyasi ishlab chiqilgan, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar, jarayonning moddiy balanslari tuzilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kaolin, bentonit va opoka jinsi kabi mahalliy komponentlardan katalizatorlar asosida piridin hosilalari (2-metilpiridin va 4-metilpiridin) sintez qilingan hamda ishlab chiqarishning texnologik parametrlari aniqlangan

piridin hosilalarini sintez qilishda unumning haroratga, katalizatorning tabiati va miqdoriga, reaksiya davomiyligiga, reaktivlarning mol nisbati ta'siriga, boshlang'ich va sintez qilingan birikmalarning elektron tuzilishiga bog'liqligi aniqlangan;

sintez qilingan ingibitorlar (2-MP va 4-MP) tabiati va optimal konsentratsiyasining korroziya tezligi va metallarning himoya darajasiga ta'siri aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi YMR-, IQ- va xromato-mass spektroskopiyalari, rentgenografiya, atom-kuch va skanerli elektron mikroskoplari kabi zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullaridan foydalanilgan holda laboratoriya tadqiqotlari olib borilganligi, o'tkazilgan ko'p sonli eksperimentlarning natijalari qoniqarli darajada mutanosibli va miqdoriy tasdiqlash bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mahalliy xomashyolardan yangi getorogen katalizatorlarning katalitik xossalarini aniqlanganligi, piridin hosilalarining unumiga reaksiya parametrlari va davomiyligining ta'sirini asoslanganligi hamda 2-metilpiridin va 4-metilpiridinlarni ishlab chiqarish uchun texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar, moddiy balanslar tuzilganligi, optimal sharoitlar aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati turli o'zaklarga (bentonit, kaolin, opoka jinsi) asoslangan yangi katalitik tizimlarni ishlab chiqishga, sintez jarayoni davomiyligi va harorati, boshlang'ich moddalar tabiatining real bog'liqliklari aniqlashga, shuningdek hosil bo'lgan mahsulotlarning metall korroziya ingibitorlari sifatida foydalanish uchun tavsiya etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mahalliy xomashyolar asosida piridin hosilalarini geterogen-katalitik sintezi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida quyidagi natijalarga erishildi:

piridin hosilalarini geterogen-katalitik usulda sintez qilish texnologiyasi "Navoiyazot" AJda amaliyotga joriy etilgan ("Navoiyazot" AJning 2024-yil 14-maydagi 02/2589-son ma'lumotnomasi). Natijada, mahalliy komponentlar asosida piridin hosilalarini olish imkonini bergan;

metall korroziya ingibitorlarining samaradorligini aniqlash usuli «Navoiy KMK» aksiyadorlik jamiyatida amaliyotga joriy etilgan («Navoiy KMK» AJning 2024-yil 29-martdagi 23/01-01-07/139-son ma'lumotnomasi). Natijada, 2-metilpiridin va 4-metilpiridindan iborat ingibitorlarni 50-200 mg/l konsentratsiyada aylanma suv ta'minoti tizimlari uchun qo'llaganda metall namunalarini mos ravishda 92,4-91,4% himoya qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta respublika va 3 ta xalqaro konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusida jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini (PhD) nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, jumladan Respublika nashrlarida 3 ta va xorijiy jurnallarda 3 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari keltirilgan, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fani va texnologiyasi rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mos kelishi ko‘rsatilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon qilinadi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga tatbiq qilinishi ochib berilgan va chop etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Piridin hosilalarini geterogen- katalitik usulda ishlab chiqarishning zamonaviy holati”** deb nomlangan birinchi bobida, adabiyotlar tahlili asosida katalizatorlarni geterogen katalitik usulda ishlab chiqish jarayonlarini har tomonlama chuqur o‘rganish holati va tahlili, piridin hosilalarini sintezi, qo‘llanilishi va ularning xossalari aniqlangan.

Piridin hosilalari asosidagi metall korroziya ingibitorlari tahlil qilinib, geterosiklik birikmalarning himoya ta’siri mexanizmi keltirilib, metall galogenidlarning tabiati va konsentratsiyasi hamda ularning turli muhitlar ta’sirida yuzaga keladigan metall korroziya va ingibitor tezligiga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Metall va qotishmalarni ingibitorlash jarayonini o‘rganish doirasida olib borilgan ishlarda korroziyaning dolzarb jihatlari aniqlangan.

Asetilen va ammiak asosidagi piridin hosilalarining holati haqidagi zamonaviy adabiy manbalarni o‘rganib, asosiy tanqidiy nuqtalar aniqlangan. Shundan kelib chiqib, dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalari belgilangan.

Dissertatsiyaning **“Xomashyolar va katalizatorlarni tayyorlash usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida boshlang‘ich xomashyolarning fizik–kimyoviy xossalari va tadqiqotlarni o‘tkazish usullari, masalan, YMR–, xromato-mass va IQ–spektroskopiyalari, rentgen fazalarini tahlil qilish, katalizatorlarning ishlash xususiyatlarini aniqlash, zichligi, nur sindirish ko‘rsatkichi, suyuqlanish temperaturasi hamda Gaussian 09 dasturiy ta‘minoti yordamida sintez qilingan moddalar tuzilishini kvant–kimyoviy hisoblashlari amalga oshirilgan.

Dissertatsiyaning **“Piridin hosilalarining geterogen-katalitik sintez jarayonlari va ularning xossalari tadqiq qilish”** deb nomlangan uchinchi bobida asetilen va ammiak asosidagi piridin hosilalarini (2-MP, 4-MP) geterogen katalitik usul yordamida sintez qilish jarayoni ko‘plab omillarga katalizatorning konsentratsiyasi va tabiati, peptizatorlar, harorat, boshlang‘ich moddalar nisbati, vaqt davomiyligi, reaktivlarning sorbsiyasi va yutilish, desorbsiya, degidrosikllanish va bosimga bog‘liqliklari keltirilgan.

Ma‘lumki, faol komponentning tabiati va konsentratsiyasi, katalizator o‘zagining tabiati piridin hosilalari sintezi kinetikasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun kaolin asosida turli-xil faol tarkibiy qismlarga ega katalizatorlar tayyorlandi: XK-13 (Cr_2O_3 -13,0%+kaolin-87,0%), RK-13(ZnO -13,0%+ kaolin -

87,0%), KXK-13(CdO-13%+Cr₂O₃-5,0%+kaolin-82,0%), KRK-13(CdO-13,0%+ZnO-5,0%+ kaolin -82,0%), XRK-13(Cr₂O₃-13,0% +ZnO-5,0%+ kaolin -82,0%) va katalik xususiyatlar 340÷460 °C harorat oralig'ida o'rganildi, eng yaxshi natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

Tadqiqot natijalarini tahlili (2-jadval) shuni ko'rsatadiki, sinovdan o'tkazilgan katalizatorlar orasida eng samarali katalizator KXK-13 markali(CdO-13,0%+Cr₂O₃-5,0%+kaolin-82,0%) katalizator hisoblanadi. Shu bilan birga, 2-MP hosil bo'lish unumi mos ravishda 35,7 dan 45,4 % gacha, 4-MP hosil bo'lish unumi esa 15,4 dan 24,8 % gacha (2 va 4 - MP umumiy unumi -70,2%) oshdi.

Shuningdek mono va diaktiv katalizatorlardan foydalanganda piridin hosilalari (2-MP va 4-MP) hosil bo'lish unumining optimal harorati 420°C ekanligi ham ko'rsatildi (1-jadval).

1-jadval

Piridin hosilalari unumining turli haroratlarda katalizatorlarning konsentratsiyasi va tabiatiga bog'liqligi

№	Katalizatorlarning markasi va tarkibi, %	Harorat, °C	Katalizat tarkibi, %		
			2-MP	4-MP	Azot saqlagan moddalar
1.	KK-13 (CdO-13,0, kaolin -87,0)	340	28,6	9,4	5,1
		360	30,7	12,3	6,4
		380	35,3	16,7	8,6
		400	38,6	19,5	10,2
		420	41,2	22,4	13,7
		440	36,3	17,6	18,4
		460	30,4	11,3	23,6
2.	KXK-13 (CdO-13,0, Cr ₂ O ₃ -5,0, kaolin -82,0)	340	35,7	15,4	3,6
		360	37,2	17,4	5,3
		380	39,5	19,8	6,4
		400	43,2	22,6	8,8
		420	45,4	24,8	10,2
		440	43,5	22,2	12,3
		460	41,8	20,8	14,7

Tadqiqot natijalariga ko'ra (1-jadval) asosiy mahsulotlarning unumi monoaktiv komponentli katalizatorlarga nisbatan diaktiv komponentli katalizatorlarda yuqori ekan.

Ma'lumki, kimyoviy reaksiyalarning kinetikasiga faol komponentlarning tabiati sezilarli darajada ta'sir qiladi.

Shuning uchun turli xil faol komponentli bentonit asosidagi katalizatorlar tayyorlandi: KB-13(CdO-13,0%, bentonit-87,0%), XB-13(Cr₂O₃-13,0%, bentonit -87,0%), RB-13(ZnO-13,0%, bentonit -87,0%), KXB-13(CdO-13,0%, Cr₂O₃-5,0%, bentonit-82,0%), KRB-13(CdO-13,0%, ZnO-5,0%, bentonit-82,0%), XRB-13(Cr₂O₃-13,0%, ZnO-5,0%, bentonit -82,0%).

Katalizatorning faol tarkibiy qismlari va harorat tabiatining piridin hosilalari unumiga ta'siri o'rganildi va eng yaxshi natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

Tadqiqot natijalari tahlili (2-jadval) shuni ko'rsatadiki, haroratning 420 °C gacha ko'tarilishi bilan piridin hosilalarining unumi ortadi, lekin haroratning yanada oshishi asosiy mahsulotlarning unumining pasayishiga olib keladi. KXB-13 katalizatori ishtirokida haroratning 420 °C gacha ko'tarilishi bilan asosiy mahsulotlarning unumi oshadi va haroratning yanada ko'tarilishi asosiy mahsulotlarning unumining kamayishiga olib keladi. Masalan, 340 °C, 380 °C, 420 °C, 440 °C haroratlarda 2-metilpiridinun unumi mos ravishda 33,0 % ; 42,0 % ; 50,0 % va 42,0 % larni tashkil qiladi.

2-jadval

Katalizator faol komponentlari tabiati va haroratining piridin hosilalari unumiga ta'siri

№	Katalizatorlarning markasi va tarkibi, %	Harorat, °C	Katalizat tarkibi, %		
			2-MP	4-MP	Azot saqlagan moddalar
1.	KB-13 (CdO-13,0, bentonit-87,0)	340	24	7	7
		360	28	11	9
		380	36	15	11
		400	41	19	15
		420	48	25	14
		440	34	15	20
		460	29	8	25
2.	KXB-13 (CdO-13,0, Cr ₂ O ₃ -5,0, bentonit -82,0)	340	33	13	6
		360	38	17	8
		380	42	20	9
		400	46	24	10
		420	50	28	10
		440	42	20	14
		460	33	16	17

Bir va ikki komponentli katalizatorlar tabiatining piridin hosilalari sinteziga ta'siri o'rganildi.

2-jadvaldagi tadqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, foydalanilgan katalizatorlar (KB-13, XB-13, RB-13, KXB-13, KRB-13, XRB-13) ichida eng samaralisi KXB-13 markali katalizatoridir. Ushbu katalizator ishtirokida piridin hosilalarining umumiy unumi -78% ni, shu jumladan 2-MP ning unumi 50% va 4-MP ning unumi 28% ni tashkil etdi.

Tadqiqot natijalarini taqqoslash (2-jadval), samaradorligi bo'yicha ishlatiladigan katalizatorlar quyidagi tartiblarga to'g'ri kelishini ko'rsatdi:


KXB-13>KB-13>KRB-13>XB-13>XRB-13>RB-13.

Sintez qilingan moddaning tuzilishini aniqlash uchun YMR-spektroskopiya usuli qo'llanildi va uning natijalari 1-rasmda keltirilgan.

Namunaning ¹H YMR spektrida (1-rasm) 1,01 m.u. dan 8,46 m.u. gacha oraliqda kimyoviy siljishlar kuzatildi va bu molekulada har xil turdagi protonlar mavjudligini ko'rsatadi. Piridin halqasidagi proton signallari quyidagicha

aniqlandi: 6-pozitsiyadagi proton 8,44-8,43 m.u.; 4-o‘rindagi proton - signallar 8,42-8,40 m.u.; 5-pozitsiyada - signallar 7,48-7,46 m.u.; 3-o‘rinda - 7,18 m.u. signallarni berdi. Shuningdek, CH₃ metil guruhining signali 2,33 m.u. ni tashkil qildi.

¹³C YMR spektrida (1-rasm) molekula tuzilishidagi uglerod atomlarining xilma-xilligini aks ettirgan holda 18,509 m.u. dan 150,308 m.u. gacha kimyoviy siljishlar kuzatildi. Aromatik halqadagi uglerod atomlarining signallari quyidagicha aniqlandi: 2 va 6-pozitsiyalarda - mos ravishda 150,30 m.u. va 146,97 m.u. signallari; 4-o‘rinda - 136,53 m.u.; 3-o‘rinda - 123,21 m.u.; 5-o‘rinda - 125,189 m.u.; CH₃ ning metil uglerodi 18,50 m.u. ni tashkil qildi.




1-rasm. 2-metilpiridinning 1H va 13C YMR spektri

YMR spektroskopiyasining 1H va 13C natijalari sintez qilingan modda

2-metilpiridin ekanligini isbotlaydi. Metil guruhi uchun singlet va aromatik uglerodlarga mos keladigan bir nechta singletlarning mavjudligiga alohida e‘tibor qaratilgan.

Shuningdek, sintez qilingan moddaning strukturasi aniqlash uchun uning IQ-spektri olindi va natijalari 2-rasmda keltirilgan.




2-rasm. Sintez qilingan 2-metilpiridin namunasining IQ-spektri

Sintez qilingan 2-metilpiridin namunasining IQ-spektrida 2900 cm^{-1} da metilpiridinning aromatik halqasidagi C-H bog'larining valent tebranishi, 2450 cm^{-1} va 1600 cm^{-1} da C=C, C=N- va C-C bog'larning aromatik halqada valent tebranishlari kuzatiladi.

Shuningdek, spektrda 1450-1300 cm^{-1} da piridin hosilalari halqasiga kiruvchi C-H bog'lanish guruhining tekis-deformatsion tebranishi ham mavjud. Bundan tashqari, spektrda 920 cm^{-1} tebranishlar kuzatildi va aromatik aminlar yoki boshqa shunga o'xshash strukturalarga xos tebranishlar mavjud. 820 va 450 cm^{-1} dagi tebranishlar aromatik halqalarda yoki piridin halqasidagi o'rinbosarlardagi deformatsion va valent tebranishlariga xosdir.

IQ-spektriga asoslanib, sintez qilingan mahsulotning yutilish zonalari 2-metilpiridinning tuzilishiga mos kelishi ham isbotlandi.

Xromato-mass-spektroskopiya usuli yordamida sintez qilingan moddaning sifat va miqdoriy xarakteristikalari tahlil qilindi va isbotlandi (3-rasm).



3-rasm. 2-metilpiridinning xromato-mass-spektri

Tadqiqot natijalarini tahlili (3-rasm) shuni ko'rsatadiki, eritmada sintezlangan moddalarning asosan ikkita namunasi - 2- va 4-metilpiridinlar mos ravishda 76,532% va 22,998% miqdorida mavjudligini ko'rsatadi va bu sintez qilingan moddaning ishonchligini isbotlaydi.

Tadqiqot natijalari tahlili (3-rasm) eritmada asosan 2-metilpiridin borligini ko'rsatadi va bu sintez qilingan moddaning ishonchligini isbotlaydi.

Keyingi paytlarda mamlakatimiz rahbariyatining qarorlarida kimyo mahsulotlarini olishda, xomashyoni mahalliyashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish uchun katalizatorlarni ishlab chiqishda, biz o'zak sifatida Konimex konida joylashgan opoka jinsidan foydalandik.

Asetilen va ammiak asosidagi piridin hosilalarining tabiati jihatidan bir-biridan farq qiluvchi turli katalizatorlar haroratida sintezi o'rganilib, natijalari 4-jadvalda keltirildi.

Tarkibida turli xil diaktiv komponentlarga ega opoka jinsi asosida piridin hosilalarini sintez qilish uchun katalizatorlar tayyorlandi.

Tadqiqot natijalarini tahlili (3-jadval) shuni ko'rsatadiki, haroratning 420 °C gacha ko'tarilishi bilan piridin hosilalarining unumi ortadi, lekin haroratning yanada oshishi yakuniy mahsulot unumining pasayishiga olib keladi. Piridin

hosilalari unumining 420 °C dan yuqori bo'lishi bilan atsetilen hosilalarini polimerlash natijasida oligomerlar va polimerlar hosil bo'la boshlaydi.

Piridin hosilalari sinteziga katalizatorlar faol komponentlarining ta'siri ham o'rganildi.

Tadqiqot natijalari tahlili (3-jadval) shuni ko'rsatadiki, foydalanilgan katalizatorlar (KXO-13, KRO-13, XRO-13) ichida KXO-13 markali katalizator eng samarali bo'lib chiqdi. Ushbu katalizator ishtirokida piridin hosilalarining umumiy unumi 81% ni, shu jumladan 2-MP uchun 52% va 4-MP uchun 29% ni tashkil etdi.

3-jadval

Piridin hosilalari unumining haroratga va katalizatorlar tabiatiga bog'liqligi (peptizator-H₃PO₄)

№	Katalizatorlarning markasi va tarkibi, %	Harorat, °C	Katalizat tarkibi, %		
			2-MP	4-MP	Azot saqlagan moddalar
1.	KXO-13 (CdO-13,0, Cr ₂ O ₃ -5,0, opoka-82,0)	340	33	13	5
		360	39	18	8
		380	45	20	12
		400	48	25	15
		420	52	29	16
		440	40	22	19
		460	32	17	20
2.	KRO-13 (CdO-13,0, ZnO -5,0, opoka -82,0)	340	22	7	5
		360	28	9	8
		380	30	14	12
		400	36	17	15
		420	41	20	19
		440	30	16	20
		460	26	10	23
3.	XRO-13. (Cr ₂ O ₃ -13,0, ZnO-5,0, opoka-82,0)	340	20	4	6
		360	25	5	9
		380	29	9	13
		400	32	12	14
		420	37	14	17
		440	29	10	20
		460	24	6	24

Ma'lumki, peptizatorlarning tabiati kimyoviy reaksiyalarning kinetikasiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Shuning uchun peptizatorlar tabiatining turli mineral va organik kislotalar bilan ta'siri o'rganilib, natijalari 4-jadvalda keltirildi.


Tadqiqot natijalari tahlili (4-jadval) shuni ko'rsatadiki, mineral kislotalar ishtirokida: HNO₃ (kons. 56%), HCl (kons. 20%) va H₃PO₄ (kons. 85%), piridin hosilalari unumining oshishi kuzatildi va organik kislota CH₃COOH (kons. 90%) ishtiroki asosiy mahsulot unumining kamayishiga olib keldi.

KXO-13 markali katalizator (CdO-13,0%, Cr₂O₃-5,0%, opoka-82,0) ishtirokida peptizator sifatida fosfor kislotasidan foydalanganda yakuniy mahsulotlar unumining sezilarli o'sishini ko'rish mumkin (5-jadval). Bunday holda, 2- va 4-MP ning umumiy unumi mos ravishda 52% va 29% ni tashkil qildi.

Peptizatorlar va katalizatorlar tabiatining 420 °C haroratda piridin hosilalarining unumiga ta'siri

№	Katalizatorlarning markasi va tarkibi, %	Peptizatorlar	Katalizat tarkibi, %		
			2-MP	4-MP	Azot saqlagan moddalar
1.	KXO-13 (CdO-13,0, Cr ₂ O ₃ -5,0, opoka -82,0)	Nitrat kislotasi	42	22	12
2.	KXO-13 (CdO-13,0, Cr ₂ O ₃ -5,0, opoka -82,0)	Xlorid kislotasi	46	26	15
3.	KXO-13 (CdO-13,0, Cr ₂ O ₃ -5,0, opoka -82,0)	Ortafosfat kislotasi	52	29	16
4.	KXO-13 (CdO-13,0, Cr ₂ O ₃ -5,0, opoka -82,0)	Sirka kislotasi	40	17	18

Ma'lumki, kimyoviy reaksiyalarning kinetikasiga reaktivlar nisbati sezilarli darajada ta'sir qiladi. Shuning uchun biz reaktivlar nisbatining piridin hosilalari unumiga ta'sirini o'rganib chiqdik va natijalari 4-rasmda keltirilgan.




4-rasm. Piridin hosilalari unumining reaksiyaga kirishuvchi moddalar nisbatiga bog'liqligi (420°C, KXO-13). Moddalar nisbati: 1-2:1; 2-1,5:1; 3-1:1; 4-1:1,5; 5-1:2

Tadqiqot natijalari tahlili (4-rasm) shuni ko'rsatadiki, turli nisbatdagi moddalarni ma'lum bir haroratda o'rganishda asosiy mahsulotlarning unumining oshishi, asosan, asetilenning hajm ulushiga bog'liq ekan. Ammiakning hajm ulushini oshirish tizimga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Asetilen va ammiakni 2:1 hajmli nisbatda olish orqali tayyor mahsulotning maksimal unumiga erishilishi aniqlandi.

Ma'lumki, kimyoviy reaksiyalarning kinetikasiga sintez jarayonining davomiyligi sezilarli darajada ta'sir qiladi. Shuning uchun biz turlixil tayyorlangan katalizatorlar ishtirokida piridin hosilalarining unumiga vaqtning ta'sirini o'rgandik va ularning natijalari 5-rasmda keltirilgan. Sintez jarayoni 420 °C haroratda va 1-50 soat oralig'ida o'rganildi.

Tadqiqot natijalarining tahlili (5-rasm) shuni ko'rsatadiki, piridin hosilalari unumi 5-30 soat oralig'ida maksimal darajadan o'tadi, keyin esa unum deyarli o'zgarishsiz qoladi.



35-40 soatdan keyin tayyor mahsulotlarning unumi pasayadi. Bu asetilen gazlaridan oligomerlar va polimerlarning hosil boʻlishi bilan bogʻliq boʻlishi mumkin va bu esa reaksiya aralashmasining qovushqoqligi oshishi bilan tasdiqlandi.

“Katalizatorlar ishlab chiqarish va piridin hosilalarini sintez qilish texnologiyalari” dissertatsiyasining toʻrtinchi bobida katalizatorlar va piridin hosilalarini ishlab chiqarish texnologiyasi, shuningdek, piridin hosilalarini metall korroziya ingibitorlari sifatida qoʻllashning texnik-iqtisodiy koʻrsatkichlari boʻyicha natijalari berilgan.

2- va 4-metilpiridinlarni ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab chiqildi.

Piridin hosilalarini sintez qilishning prinsipial texnologik sxemasi 6-rasmda keltirilgan.

Ammiak gaz holatda gazgolderdan 1a quvur orqali sistemaga beriladi va 200-450 °C gacha qizdirilgan bugʻ bilan taminlangan issiqlik almashinish qurilmasiga 2 yuboriladi. Bunda ammiak bosimi 2,2 atm.gacha tushadi. Undan qizdirilgan ammiak bugʻlari aralashtirgich qurilmasiga 6 yuboriladi. Ammiak sarfi rotametrlar yordamida nazorat qilinadi. Uskunaga ammiak yetkazib berish avtomatik klapanlar yordamida nazorat qilinadi. Ammiak gazi sarfi tezligi 0,7-1,1 m³/soatni tashkil etadi. Agar ammiak sarfi uzilib qolsa, asboblari va boshqaruv panelida yorugʻlik signali yonadi.

Sistemaga asetilen quvurlar orqali yetkazib beriladi. Asetilen gazgolderdan 3a yonishni oldini oluvchi qurilma orqali oʻtib, vakuum - nasos 5 bilan 0,2 atm. bosim ostida aralashtirgichga 6 yuboriladi. Yonishni oldini oluvchi qurilma Rashig poʻlat halqalari bilan toʻldirilgan va membranalar bilan jihozlangan.


Asetilen sarfi rotametr va avtomatik boshqaruv klapanlari tomonidan nazorat qilinadi. Asetilen gazi sarfi tezligi 1,6-2,5 m³/soatni tashkil etadi.

Qizdirgichdan 7 200-250 °C haroratda qizigan kontakt bugʻ-gaz aralashmasi aralashtirgich 6 orqali reaktordan 8 tashkil topgan sintez zonasiga yuboriladi. Reaktor - kojux quvurli issiqlik almashtirgich tipidagi vertikal qurilmadir.

Katalizator reaktor quvurlarining ichki qismiga yuklanadi va 400-450 °C haroratda pechda qizdirilgan va 1,2 atm bosim ostidagi bugʻ reaktorning quvurlar orasiga yuboriladi. Reaktorda 2- va 4-metilpiridinlarning sintezi 350°C haroratda boshlanadi.

Sintez mahsulotlari, reaksiyaga kirishmagan boshlang'ich birikmalar bilan birga, reaktordan 8 bug'-gaz aralashmasi shaklida sovutgichlarga 9, 10 yuboriladi. Ularda piridin hosilalari va sintez qilingan 2,4-dimetilpiridinlar, asetonitril, lutidinlar va boshqa qo'shimcha mahsulotlarning kondensatsiyasi sodir bo'ladi. Hosil bo'lgan kondensat sovutgichlardan 9, 10 yig'ichlarga 11,12 yuboriladi.

Gazsimon moddalar - reaksiyaga kirishmagan ammiak 15% li sulfat kislotasi bilan neytralizatsiya minorasida 13 neytrallanadi va yig'ichga 14 yuboriladi, atsetilen va boshqa moddalar esa sistemaga qaytariladi.



1a, 3a-ammiak va asetilen gazgolderlari; 2, 9, 10, 16, 20-issiqlik almashinish qurilmalari; 4- yonishni oldini oluvchi qurilma; 5-vakuum nasos; 6-aralastirgich; 7, 24-qizdirgich; 8-reaktor; 11, 12, 14, 19, 21 yig'ichlar; 13-neytralizatsiya minorasi; 15-markazdan qochma nasos; 17-rektifikatsiya minorasi; 18-deflegmator; 22-kub qoldiq; 23-plunjerli nasos; 25-sath o'lchagich.

6-rasm. Piridin hosilalarini sintez qilishning prinsipial sxemasi

Sintezlangan modda oraliq yig'ichdan 11 markazdan qochma nasos 15 yordamida issiqlik almashinish qurilmasiga 16 beriladi va u yerda qaynash haroratiga qadar qizdiriladi. Qizdirilgan aralashmani ajratish uchun rektifikatsiya minorasining 17 tarelkalariga yuboriladi.

Kub qoldiqdagi aralashma qaynashidan hosil bo'lgan bug' minora devori bo'ylab pastga oqayotgan aralashma bilan o'zaro ta'sirlashadi. Aralashma bilan massa almashinuvi natijasida bug' uchuvchan komponent bilan boyitiladi. To'liqroq boyitish uchun minoraning yuqori qismidan chiqadigan bug'ni kondensatsiyalash yo'li bilan qaytariladigan deflegmatorda 18 kondensatsiyalangan suyuqlik (flegma) bilan boyitiladi.

Ustunning yuqori qismidan chiqib, bug' deflegmatorga 18 kiradi va kondensat (flegma) hosil bo'ladi. Deflegmatorda 18 hosil bo'lgan kondensat zichlik o'lchagich va sifon bilan jihozlangan yig'ichga yuboriladi. Kondensatning bir

qismi yig'gichdan tayyor mahsulot sifatida issiqlik almashinish qurilmasiga 21 yuboriladi va u yerda ma'lum haroratgacha sovutiladi, so'ngra tayyor mahsulot yig'gichiga 22 yuboriladi.

Sintezlangan piridin hosilalarining tabiati va konsentratsiyasining korroziya ingibitorlari sifatida ta'siri o'rganildi va natijalari 5-jadvalda keltirilgan.

Tadqiqot natijalari tahlili (5-jadval) shuni ko'rsatadiki, harorat oshishi bilan metallarning korroziya tezligi oshadi. Masalan, 20°C da (ta'sir qilish vaqti 96 soat) 1,0 mass.% li NaCl eritmasidagi St.3 markali po'lat namunasi korroziya tezligi $3,05 \cdot 10^{-7}$ g/m²·soat, 60°C da esa $6,21 \cdot 10^{-7}$ g/m²·soatni tashkil etdi. Korroziya darajasi esa 2,03 marta ortishi aniqlandi.

Piridin hosilalari konsentratsiyasining ingibitor sifatidagi ta'siri ham o'rganilib, natijalari 6-jadvalda keltirilgan.

Tadqiqot natijalari tahlili (5-jadval) shuni ko'rsatadiki, ingibitor konsentratsiyasi ortishi bilan metall korroziya tezligi pasayadi va himoya darajasi oshadi.

5-jadval

Harorat, ingibitorlar tabiati va konsentratsiyasining tuzli eritmadagi St.3 po'lat markasining korroziya tezligiga (KT) va himoya darajasiga (HD) ta'siri ($\tau=96$ soat, NaCl-1,0 mass.%, pH=7)

№	Ingibitorlarning nomi	Harorat, °C					
		20		40		60	
		KT, g/m ² ·s	HD, %	KT, g/m ² ·s	HD, %	KT, g/m ² ·s	HD, %
1.	Boshl. metall (ingibitorsiz)	$3,05 \cdot 10^{-7}$	–	$4,35 \cdot 10^{-7}$	–	$6,21 \cdot 10^{-7}$	–
2.	2-MP 0,01%	$0,26 \cdot 10^{-7}$	91,4	$0,46 \cdot 10^{-7}$	89,4	$0,87 \cdot 10^{-7}$	85,9
3.	2-MP 0,05%	$0,19 \cdot 10^{-7}$	93,7	$0,39 \cdot 10^{-7}$	91,1	$0,79 \cdot 10^{-7}$	87,2
4.	4-MP 0,01%	$0,28 \cdot 10^{-7}$	90,8	$0,49 \cdot 10^{-7}$	88,7	$0,88 \cdot 10^{-7}$	85,8
5.	4-MP 0,05%	$0,22 \cdot 10^{-7}$	92,7	$0,42 \cdot 10^{-7}$	90,3	$0,82 \cdot 10^{-7}$	86,8

Masalan, 0,01 mass.% 2-MP (ta'sir qilish vaqti 96 soat, 20°C haroratda) ta'sirida korroziya tezligi $0,26 \cdot 10^{-7}$ g/m²·soatni, sirtini himoya qilish darajasi St.3. 91,4% tashkil qildi. Xuddi shu sharoitda, 0,05 mass.% 2-MP ta'sirida korroziya tezligi $0,19 \cdot 10^{-7}$ g/m²·soatni, himoya darajasi esa 93,7% ni tashkil qildi.

Ingibitorlar(2-MP, 4-MP) tabiatining ta'siri o'rganildi va natijalari 6-jadvalda keltirilgan.

Tadqiqot natijalarini tahlili(6-jadval) shuni ko'rsatadiki, piridin hosilalari metallarning korroziya jarayoniga turli xil ta'sir ko'rsatadi.


Masalan, 0,01mass.% 2-MP (ta'sir qilish vaqti 96 soat, 20°C haroratda) ta'sirida korroziya tezligi $0,26 \cdot 10^{-7}$ g/m²·soat, St.3 markasi sirtini himoya qilish darajasi 91,4% ni tashkil etdi. Xuddi shu sharoitda, 0,01 mass.% 4-MP ta'sirida esa korroziya tezligi $0,28 \cdot 10^{-7}$ g/m²·soatni va St.3 markasi sirtini himoya qilish darajasi 90,8% ni tashkil qildi.

Shuningdek, ingibirlashdan oldin va keyingi St.3 po‘lat namunasining sirt yuzasi morfologiyasi Agilent 5500 qurilmasi (AQSH) atom-kuch mikroskopi yordamida o‘rganildi. St.3 namunalari sirtining topografiyasi tuzli muhitda, ingibitorlarning turli konsentratsiyalarini qo‘llash orqali amalga oshirildi. Po‘lat namunasi yuzasida kichik, o‘rta va katta botiqliklar paydo bo‘lib, ularning o‘lchamlari aniqlandi.


St.3 namunasi yuzasining ingibitorsiz tuzli muhitda paydo bo‘lgan botiqliklar o‘lchamlari 95 nm.dan 220 nm.gacha ekanligi aniqlandi. Bu metall yuzasida korroziya jarayonining sodir bo‘lganini ko‘rsatadi.

St.3 namunasining yuzasida ingibitorlarning turli konsentratsiyalari qo‘llab ko‘rilganda, kichik botiqliklarning o‘lchami 170 nm.dan 30 nm.gacha pasayganligi, katta botiqlar o‘lchami esa 220 nm.dan 85,4 nm.gacha pasayganligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, metallar korroziyasi ingibitorlari metall yuzasida korroziya jarayonini sekinlashtirishi uchun himoya plyonkasi hosil qiladi. Dastlabki po‘lat namunasi va tuzli muhit ta‘sirida po‘lat sirt yuzasining atom-kuch mikroskopidagi tasvirlari 7- va 8-rasmlarda keltirilgan.



7-rasm. Dastlabki po‘lat yuzasining tasviri



8-rasm. 1% li NaCl eritmasi va 2-metilpiridinning 0,05 % li eritmasi ta‘siridagi po‘lat yuzasining tasviri

Asetilen va ammiak gazlari sintezidan olingan piridin hosilalaridan ishlab chiqarilgan ingibitorlar metall korroziyasini oldini olish xususiyatiga ko‘ra, Muborak gazni qayta ishlash zavodida qo‘llaniladigan FloGrad MS6217 ingibitori bilan texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari solishtirildi. Natijada, iqtisodiy samaradorlik

1 tn 2-metilpiridin uchun 37,8 million so‘mni tashkil qildi va ushbu ingibitorlarni xarid qilgan tashkilot va korxonalariga import qilingan ingibitorlarga nisbatan 280,8 million so‘m tejash imkonini beradi.

XULOSA

“Mahalliy xomashyolar asosida piridin hosilalarini geterogen-katalitik sintezi” mavzusidagi texnika fanlaridan falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarga asoslangan holda, nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Mahalliy komponentlar asosidagi geterogen katalizatorlarning yangi turlari tayyorlandi. Geterogen katalizatorlar uchun o‘zak sifatida kaolin, bentonit va

opoka jinsi ishlatildi. Fizik-kimyoviy xususiyatlar bo'yicha eng maqbul natijalar KXO-13 markali katalizatorida namoyon bo'ldi.

2. Tayyorlangan katalizatorlar asosida 2-metilpiridin va 4-metilpiridinlar sintez qilindi va asosiy mahsulot unumiga turli omillarning (katalizator tabiati, harorat va reaksiya vaqtining davomiyligi hamda reaksiyaga kirishuvchi moddalar nisbati) ta'siri o'rganildi. Natijalarga ko'ra, piridin hosilalari unumi 5-30 soat oralig'ida maksimal darajadan o'tadi va reaksiya unumi 81% ni tashkil qildi.

3. YMR-, IQ- va xromato-mass-spektr analizlar kabi fizik-kimyoviy tahlil usullaridan foydalangan holda sintez qilingan moddalarning strukturalari o'rnatildi va ularning fizik-kimyoviy konstantalari aniqlandi.

4. Mahalliy komponentlardan foydalangan holda katalizatorlar ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab chiqildi. 100 kg katalizator ishlab chiqarish uchun moddiy balans va sarflanish koeffitsientlari hisoblab chiqildi.

5. Piridin hosilalarini olish texnologiyasi ishlab chiqildi va ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari aniqlandi. Asosiy sintez mahsulotlarining optimal ishlab chiqarish usullari va unumi aniqlandi. Sintez mahsulotlarining maksimal unumiga 2:1 nisbatda asetilen va ammiak olinganda va mos ravishda 1,6-2,5 m³/soat va 0,7-1,1 m³/soat berish tezligida erishilishi aniqlandi. 2-MP dan korroziyaga qarshi ingibitor sifatida foydalanishning iqtisodiy foydasi hozirgi FloGard MS6217 markasiga nisbatan 280,8 million so'mni tashkil etdi.

6. Olingan piridin hosilalari metall korroziya ingibitorlari sifatida taklif etildi. Ingibitorlarni qo'llash rejimlari aniqlandi. Ingibitorlashning korroziya tezliklari hisoblab chiqildi.

7. Piridin hosilalari tabiatining metall korroziyasiga ta'siri o'rganildi. 2-MP 4-MP ga qaraganda metallar korroziyasiga qarshi samaraliroq ingibitor ekanligi aniqlandi. Piridin hosilalari ishtirokida himoya darajasi mos ravishda 93,7% va 92,7% ni tashkil qildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.17/7.06.2024.К/Т.06.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАВОЙСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ГОРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**НАВОЙСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ГОРНО-
ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

КОДИРОВ САРДОР МУСУРМОНОВИЧ

**ГЕТЕРОГЕННО-КАТАЛИТИЧЕСКИЙ СИНТЕЗ ПРОИЗВОДНЫХ
ПИРИДИНА НА ОСНОВЕ МЕСТНОГО СЫРЬЯ**

02.00.14 - Технология органических веществ и материалов на их основе

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Навои-2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.2.PhD/T2612.

Докторская диссертация выполнена в Навоийском государственном горно-технологическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу www.nsumt.uz и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	Вапоев Хуснитдин Мирзоевич доктор технических наук, доцент
Официальные оппоненты:	Кадиров Хасан Иргашевич доктор технических наук, профессор Абдуразаков Аскар Шералиевич доктор технических наук, старший научный сотрудник
Ведущая организация:	Бухарский инженерно-технологический институт


Защита диссертации состоится 18 07 2024 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.17/7.06.2024.K/T.06.03. (Адрес: 210100, г. Навои, ул. Галаба шох, 76в. Зал заседаний Навоийского государственного горно-технологического университета. Тел.: 0 (436) 223-23-32; факс: 0 (436) 223-49-66; (e-mail: info@ndki.uz, nsmi@gmail.com).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Навоийского государственного горно-технологического университета (зарегистрирован за № 157). Адрес: 210100, г. Навои, ул. Галаба шох, 76в. Тел.: 0 (436) 223-23-32; факс: 0 (436) 223-49-66.

Автореферат диссертации разослан 6 07 2024.
(реестр протокола рассылки № 1 от 6 07 2024).




Б.Ф.Мухиддинов
Председатель Научного совета
по присуждению ученых
степеней, д.х.н., профессор.


С.Ш.Шарипов
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, PhD., доцент


М.Муминов
И.о. председателя Научного семинара при Научном
совете по присуждению ученых
степеней, д.х.н., проф.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире многие вещества с пиридиновым кольцом в структуре являются основой для получения лекарственных препаратов (73 препарата из 1500 жизненно важных), красителей, агрохимикатов, флокулянтов, эмульгаторов, латексов, ингибиторов кислотной коррозии, ионообменных смол и других полезных материалов. Объем производства пиридинов и его производные в мире к настоящему времени превышают 100 тыс. т/год и в дальнейшем рост спроса на эту продукцию повлечёт внедрение в процесс синтеза передовых технологии. Более 90% синтезированного пиридина и его производных получают синтетическими методами с использованием фторсодержащих катализаторов. В связи с этим приобретает всестороннее значение совершенствование технологии синтеза производных пиридина в условиях, приемлемых для экологически безопасного сырья и здоровья человека, локализация источников импортируемого сырья и одновременно внедрение в практику новых типов катализаторов.

В мире на сегодняшний день в промышленных процессах получения производных пиридина, применяют каталитическую газофазную циклоконденсацию, с использованием результатов научно-исследовательских работ. Вместе с этим по последним данным выход производных пиридина составляет, как правило, 40–60 %. Не смотря на удовлетворительные результаты в Узбекистане отсутствуют производства по выпуску производных пиридина. На сегодняшний день особое внимание уделяется на локализацию производства производных пиридина путем разработки новых типов катализаторов из местного сырья, применение производных пиридина в качестве ингибиторов, способствующих решению проблем, связанных с коррозией металлов.

В Республике в последние годы выполнены ряд научно-практических работ по совершенствованию технологического процесса гетерогенно-каталитического синтеза производных пиридина, созданию новых типов катализаторов из местного сырья, применению синтезированных продуктов в качестве растворителя, пестицидов, ПАВ. В Постановлении Президента Республики Узбекистан определены важные задачи по «Расширению научно-исследовательских работ, по созданию и внедрению в производство энергосберегающих и экологически безопасных технологий...»¹. В связи с этим, особое внимание уделяется выполнению задач по гетерогенно-каталитическому синтезу производных пиридина, исследованию физико-химических свойств продуктов, обоснованию локализационных возможностей технологического производства, а также определению ингибирующей роли синтезированных продуктов в широком интервале концентрации.

